

YASHIL IQTISODIYOTNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

Shakarova Aziza Anvarovna²²⁹

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun yashil iqtisodiyotga o‘tishning ob’ektiv zarurati, ushbu siyosatning ustuvor yo‘nalishlari tadqiq qilingan. “Yashil iqtisodiy siyosat”ning tarkibiy tuzilishi bayon qilingan va konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, mintaqा, strategiya, ekologik xavfsizlik, iqtisodiy rivojlanish, konstitutsiya, ekologiya huquqi.

O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish zaruriyati milliy iqtisodiyotda iste’mol qilinayotgan energiyaning aksariyat qismi tiklanmaydigan tabiiy resurslardan foydalanib ishlab chiqarilayotganligi, ushbu resurslar zaxirasining cheklanganligi, sanoatning jadal sur’atlarda rivojlanishi oqibatida atrof-muhitning ifloslanishi, suv tanqisligi, Orol dengizining qurib borishi bilan bog‘liq ekologik muammolarning keskinlashib borayotganligi bilan izohlanadi. O‘zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, tarkibiy o‘zgarishlarning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish ichki va global jarayonlar hamda muammolarni hisobga olishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda “yashil iqtisodiyot” asosida barqaror rivojlanishni ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yil 4 oktyabrdagi tasdiqlangan “2019–2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasini “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” muhim dasturiy amal hisoblanadi. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste’mol qilish kiradi. Ushbu belgilangan maqsadli indikatorlarga texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi. 2030 yilgacha bo‘lgan davrda strategiyani amalga oshirish jarayonida yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlarining solishtirma chiqindilari 2010 yil darajasidan o‘n foizga kamayadi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining yuz foizga qadar zamонави, arzon va ishonchli elektr ta’minotidan foydalanish ta’minlanadi. Ekologik jihatdan yaxshilangan motorli yoqilg‘i va avtomobil ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish kengaytiriladi, elektr transporti rivojlanadi.²³⁰

²²⁹ O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlар vazirligi Navoiy akademik litseyi, “Huquqiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasи huquqshunoslik fani yetakchi o‘qituvchisi, E-mail aziza19851219@cloud.com

²³⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrdagi “2019 — 2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son Qarori

Konstitutsiyada O‘zbekiston ekologik taraqqiyot strategiyasining asosiy qoidalari, ekologik va aholining ekologik xavfsizligiga doir talablar belgilangan bo‘lib, ushbu siyosiy-huquqiy hujjat mamlakatimizda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish bo‘yicha eng muhim va asosiy qoidalarni belgilab beradi.

Ma’lumki, konstitutsiyaviy normalarning ekologik siyosatni amalga oshirishdagi o‘rni va ahamiyati beqiyos. Aynan Asosiy qonunda davlat organlari va jamoat birlashmalarining ekologik faoliyatini shakllantirish bo‘yicha asosiy prinsiplari mustahkamlanadi, fuqarolarning ekologik burchlari belgilanadi, jamiyatning ekologik barqaror rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari o‘rnataladi va h.k.

Konstitutsiyaviy normalar tizimi jamiyat va tabiatning o‘zaro aloqasi chog‘ida yuzaga keladigan va tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar tavsifidan kelib chiqib, shartli ravishda ikki qismga – umumiylar va maxsus ekologik normalarga bo‘linishi mumkin.

Umumiylar konstitutsiyaviy normalar demokratik-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyatini tashkil etishning asosiy prinsiplarini belgilashda, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlashda, ekologik huquq-tartibotni mustahkamlashda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xususan, Konstitutsiyamizning 10-bobi inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda davlatning fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan (shu jumladan ekologik) huquqlarini kafolatlashi belgilangan.²³¹

“Yashil iqtisodiyot – bu ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyot”.²³²

“Yashil iqtisodiyot (green economy) – bu insonning Yer resurslariga mas’uliyatli munosabatlarni o‘z ichiga olgan va farovonlikning o‘sishi va tabiiy resurslarni tejash o‘rtasida oqilona murosani topishga qaratilgan iqtisodiy rivojlanish modeli”.²³³

Yashil texnologiyalar va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish borasidagi vazifalarni amalga oshirish doirasida energiya tejash, energiya samarador, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish

²³¹O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023.

²³²https://uz.wikipedia.org/wiki/Yashil_iqtisodiyot

³<https://anhor.uz/uz/economy/tadbirkorlarning-jashil-k-magi/p>

va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida ilg‘or tajribalarni o‘rganish jamiyatimizda zaruriy shartdir.²³⁴

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasiga muvofiq, fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyojkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar. Ushbu normaning ahamiyati shu bilan belgilanadiki, unda birinchidan, fuqarolarning ekologik burchi Konstitutsiya darajasida mustahkamlangan; ikkinchidan, atrof tabiiy muhit tushunchasining yuridik mazmunidan kelib chiqib, Konstitutsiyaning ushbu normasi nafaqat fuqarolarning tabiatni muhofaza qilish, balki tabiiy resurslardan oqilona foydalanish majburiyatini ham nazarda tutadi.

Asosiy Qonunimizning 54-moddasida belgilanishicha, mulkdor mulkiga o‘z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdor foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart.

Ushbu normaning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda mulk huquqi, xususan tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi mazmunini belgilovchi mulkdor vakolatlari tartibga solingan hamda bunday xo‘jalik va ishlab chiqarish faoliyati atrof tabiiy muhitga zarar yetkazmasligi kabi talab mustahkamlangan.

Davlat ekologik siyosatining asoslari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida o‘z aksini topgan. Unga ko‘ra, yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir. Ushbu konstitutsiyaviy norma davlat ekologik faoliyatining quyidagi asosiy prinsiplarini ifodalaydi:

Birinchidan, respublika tabiiy resurslari umummilliy boylik hisoblanadi, ya’ni yuridik ma’noda ular xalq mulkini tashkil etadi hamda ular nomidan davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari qonunda belgilangan vakolatlari doirasida ish yuritadi.

Ikkinchidan, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish zarur. Ekologiya huquqida oqilona deganda, tabiiy resurslardan ekologik normativ va standartlarga qat’iy rioya etgan holda foydalanish tushuniladi.

Uchinchidan, tabiat ob’ektlari va resurslari davlat tomonidan qo‘riqlanadi. Bu davlat tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishni ta’minlashini hamda jismoniy va yuridik shaxslarning ekologik huquq va manfaatlariga, shuningdek ekologik huquq-tartibotga rioya etilishini kafolatlashini anglatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O‘zbekistonda milliy iqtisodiyot va mintaqalar hududiy iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida tafovutlar ko‘zga

²³⁴ Beder, S. (2011), 'Environmental economics and ecological economics: the contribution of interdisciplinary to understanding, influence and effectiveness', Environmental Conservation, vol. 38, no. 2, pp. 140-150.3SPASH2011.

tashlanadi. Shu sababdan barqaror rivojlanish tamoyillariga asosan hudularda iqtisodiyotning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishini ta’minlash talab etiladi. Hozirda dunyoning ko‘plab mintaqalarida – Yevropa Ittifoqida, Shimoliy Amerikada, Janubiy-sharqiy Osiyo davlatlarida, Fors ko‘rfazi mamlakatlarida va boshqalarda allaqachon “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish orqali barqaror rivojlanishni ta’minlash bo‘yicha amaliy choralar ko‘rilmoxda.

O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot” orqali barqaror rivojlanishga erishish borasida dastlabki huquqiy asoslar yaratildi. Umumi strategiya ishlab chiqildi. Strategiyaga asosan ustuvor yo‘nalishlar belgilandi, bular borasida ishlar olib borilmoqda. Biroq, hali amalga oshrilishi lozim bo‘lgan ishlar talaygina. Jumladan, Iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha to‘liq “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishning strategiyalari, usuvor yo‘nalishlari ishlab chiqilishi zarur. Aholining bu borada savodxonligini, qay darajada bu o‘zgarishlarga tayyorligini yo‘naltirib borish talab etiladi. Aksariyat tabiiy resurslarning yaqin kelajakda qayta tiklanmas darajada tugashi hududlarda “yashil iqtisodiyot” tamoyillari asosida barqaror rivojlanishga o‘tishni talab qiladi. Shu sababdan hozirdan bu jarayonlarni boshlash va samarali amalga oshirish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi “2019 — 2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son Qarori;
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yashil_iqtisodiyot
4. <https://anhor.uz/uz/economy/tadbirkorlarning-jashil-k-magi/p>
5. Beder, S. (2011), 'Environmental economics and ecological economics: the contribution of interdisciplinary to understanding, influence and effectiveness', Environmental Conservation, vol. 38, no. 2, pp. 140-150.3SPASH2011.